



SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM ASOSIDA O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Boqiyev G'ulomjon Ochilovich

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

"Pedagogika va o'qitish metodikasi"

kafedra v.b.professori

Issayeva Shohida Choriyevna

Pedagogika mutaxassisligi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamonaviy ta'limning eng ustuvor qismi hisoblangan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosida o'quvchilarni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari va o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini zamonaviy tarzda shakllantirish ming zamonaviy istiqbollari ochib berilgan. Bunda darslarni o'zlashtirish jarayonida tashkil etiladigan yangicha texnologiyalar asosida kreativ yondashish qay darajada samarali ekanligi ifodalangan.

Kalit so'zlar: Kreativlik, zamonaviy texnologiya, kreativ yondashuv, individuallik, moslashuvchanlik, kreativ fikrlash, zamonaviy ta'lim, yaratuvchanlik, yondashuv, intellektual, globallashuv

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретические и практические основы развития учащихся на основе личностно-ориентированного образования, считающегося важнейшим направлением современного образования, а также современные перспективы формирования творческих способностей учащихся на современном уровне. Показывается эффективность творческого подхода, основанного на новых технологиях, в процессе освоения уроков.

Ключевые слова: Креативность, современные технологии, креативный подход, индивидуальность, гибкость, креативное мышление, современное образование, креативность, подход, интеллектуальность, глобализация

Abstract: This article reveals the theoretical and practical foundations of student development based on person-centered education, which is considered the most priority part of modern education, and the modern prospects for the formation of students' creative abilities in a modern way. It shows how effective the creative approach based on new technologies is in the process of mastering lessons.

Keywords: Creativity, modern technology, creative approach, individuality, flexibility, creative thinking, modern education, creativity, approach, intellectual, globalization.

Kirish: Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim oldida turgan asosiy vazifalardan biri o'quvchilarni zamonaviy fikrllovchi, muammolarni kreativ yecha

oladigan, tashabbuskor shaxslarga aylantirishdir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazkur maqsadga erishishning eng samarali yondashuvlaridan biri bo'lib, u o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirilgan ta'lim jarayonini nazarda tutadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchini ta'lim jarayonining markaziga olib chiqadi va uning o'z ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etishiga sharoit yaratadi. Hozirgi kunda biz yashayotgan dunyo soat sayin tanib bo'lmaydigan darajada rivojlanib, o'zgarib bormoqda. O'qituvchi bugungi kunning zamonaviy o'quvchilari nima bilan yashayotganini tushunishi hamda ularga mos holda bo'lishi zarur. Salohiyatli, bilimli, kreativ qobiliyatga ega, zamon bilan hamnafas kadrlar, mustaqil fikrlovchi pedagoglar albatta yurtimizning ertasini ta'minlaydi.

Ta'lim tizimida izchil o'zgarishlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad ham aslida ana shunday kadrlarni yaratishga qaratilgan. Bugungi kunning zamonaviy o'quvchisi o'zining kreativ qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan im dunyosida yashayapti. Rivojlanish va taraqqiyot bilan baravar qadam tashlayotgan pedagog o'qituvchilarning ko'pchiligi bugun o'qitish jarayonida shaxslarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda ruhiy va aqliy jihatdan kamol topishi lozim. Asosiy qism: Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim bu o'quvchi shaxsini rivojlantirishni ustuvor maqsad sifatida ko'radigan pedagogik tizim hisoblanadi.

Uning asosiy tamoyillari:

1. Individual yondashuv-har bir o'quvchi takrorlanmas shaxs hisoblanadi. Ularning qiziqishlari, bilish darajasi, o'rganish uslubi va psixologik tipi farq qiladi. O'qituvchi aynan shu farqlarni inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etadi.

2. O'quvchi faolligini oshirish.

O'qituvchi ko'proq murabbiy, yo'naltiruvchi rolini bajaradi. O'quvchi esa tahlil qiladi, izlaydi, amaliyotda sinab ko'radi va xulosa chiqaradi. Bu jarayon o'z o'zidan kreativ fikrlashni kuchaytiradi.

3. Ta'limning moslashuvchanligi.

O'qitish dasturi qat'iy emas balki o'quvchining rivojlanish sur'ati va qiziqishlariga mos ravishda o'zgarishi mumkin.

4. Hamkorlikda o'qitish.

O'quvchi - o'qituvchi, o'quvchi o'quvchi hamkorligi kreativlikni rag'batlantiradi.

Ijodiy-intellektual qobiliyatlar shaxsning ta'sirchanligi, tafakkur o'zgaruvchanligi, xilma-xil va o'ziga xosligi, savodli va mantiqiy fikr mulohaza yuritish eng asosiy kreativ fazilatlar majmui bo'lib, nafaqat yuksak ijodiy rivojlanishni bundan tashqari shaxs rivojlanishining eng muhim omili sanaladi.

Kreativ qobiliyatga ega bo'lish har qanday faoliyatdagi yuksaklik va muvaffaqiyat garovi hisoblanib, kishilar bilan muloqotdagi kundalik faoliyatdagi yutuqlar garovidir.

Hozirgi kunda har bir davlatning o'sishida, taraqqiyotida texnologiya, o'sib kelayotgan barkamol avlodni kreativ fikrlashi ni, kreativ qobiliyatini rivojlantirish,

dars jarayonida har bir o'quvchi bilan ijodiy yondashish borasida o'zgarishlar kun sayin globallashib, uning natijasi va boshqaruvidan yuksak san'at, mahorat egasi bo'lishni talab etmoqda. Aynan shu sababli ham juda ko'p davlatlarning hujjatlarida, shuningdek bosh qomusimiz hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Qonunining 2-bo'lim, X| bob, 42-moddasida aynan ijod erkinligi xususida mana shunday imkoniyatlar keltirilgan. "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniy yutuqlardan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi."

Inson hayotida, faoliyat jarayonida yaratuvchanlik, erkin va ijodiy fikrlash har qanday vaziyatda, har qanday muammoni, loyihani yechishda sermahsul va natijador jarayon hisoblanadi.

Kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda o'qituvchining roli

O'qituvchi:

1.Motivatsion muhit yaratishi

O'quvchilarning keng, erkin fikrlashlari uchun qo'llab - quvvatlovchi, xatodan qo'rqmaydigan va cho'chimaydigan muhit eng muhim vosita hisoblanadi.

2.Yangi g'oyalarni qadrlashi

O'quvchi tomonidan aytilayotgan har bir g'oya baholanadi va rag'batlantiriladi.

Bu o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi.

3.Differensial ta'limni qo'llashi.

O'quvchilarning qobiliyatlariga qarab turli darajadagi topshiriqlar beriladi va shu orqali baholanadi.

Kreativlik, yaratuvchanlik ham yuqumli xususiyatga ega bo'ladi. Inson kreativ fikrga ega bo'lishi uchun ko'proq kreativ insonlar bilan muloqot qilishi, tajriba almashishi lozim bo'ladi. Kreativ fikrlash ko'nikmasi va qobiliyatini ham rivojlantirish mumkin.

Xorijiy pedagoglardan hisoblangan Patti Drapeauning fikriga qaraganda pedagogning kreativligi boshqalarni ya'ni o'quvchilarni ijodiy jarayonini ruhlantiradi. Pedagog Patti Drapeau nazariyasida shaxsda kreativlik sifatlarini muvaffaqiyatli rivojlantirib borishning to'rtta yo'li ko'rsatilgan

Kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish

Amaliy kreativ harakat ko'nikmalarini rivojlantirish

Kreativ faoliyat jarayonlarni tashkil etish

Kreativ ishlanmalardan foydalanish.

Xulosa qilib aytganda hozirgi zamon talablariga mos keluvchi, kreativ fikrlaydigan, yangilikka intiluvchan, intellektual rivojlangan kadrlarni tayyorlash uchun pedagog har qanday muammoning yechimiga, dars jarayonida o'quv materiallarini o'rgatishga ijodiy yondashish shart hisoblanadi. O'quvchilarga dars o'tish jarayonida mashg'ulotlarning o'ziga xosligi, shaxsga yo'naltirilganligi, innovatsion mohiyatga egaligi, elastikligi, shaxsning kreativ rivojlanishi kabilarni

singdirishi lozim. O'qituvchi pedagogning kreativ va ijodkor bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki dars jarayonini kreativlik ruhida tashkil qilish, ijodiy tashabbuskorlik, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi lozim bo'ladi. Bundan tashqari shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchini tayyor qolipga solish emas, balki uning tabiiy salohiyati va kreativ qobiliyatlarini to'liq ochib berish jarayonidir. Bu yondashuv ijodkor, innovatsion fikrlovchi, raqobatbardosh shaxslarni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo'ladi. O'qituvchining zamonaviy metodlardan foydalanishi va o'quvchi qiziqishlarini inobatga olishi kreativ qobiliyatlarning rivojlanishiga katta turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Qonunchilik hujjatlari:

1.Ozbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T:O'zbekiston, 2010

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni (2020)

Darslik va qo'llanmalar

Deyl Karnegi "Qanday qilib do'st orttirish va odamlarga ta'sir ko'rsatish mumkin".

"Namangan" - 2007-y 128-b,40-bet

Karimov. B. R. To'xliyev. B(2021) Pedagogika Toshkent:fan

Xoliqova D. Qodirova. F(2020) Pedagogik texnologiyalar. Toshkent:Tafakkur

G'oziyev E(2019) Umumiy psixologiya. Toshkent :O'qituvchi